BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

UBAYDOVA HULKARBEGIM ASROR QIZI

O‘ZBEK XALQ PAREMALARIDA ANTONIMIYA VA UNGA YONDOSH HODISALAR

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

UDK: 811.512.133: 398

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертатции доктора философии (PhD) по филологическим наукам

The contents of the dissertation abstract for a Doctor of Philosophy (PhD) in Philology

Ubaydova Hulkarbegim Asror qizi
O‘zbek xalq paremalarida antonimiya va unga yondosh hodisalar..... 3

Убайдова Хулкарбегим Асрор кизи
Антонимия и смежные явления в узбекских народных паремиях…….23

Ubaydova Hulkarbegim Asror qizi
Antonymy and related phenomena in uzbek folk proverbs 43

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati
Список опубликованных работ
List of published works 48

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 RAQAMLI ILMIY KENGASH

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

UBAYDOVA HULKARBEGIM ASROR QIZI

O‘ZBEK XALQ PAREMALARIDA ANTONIMIYA VA UNGA YONDOSH HODISALAR

10.00.01 – O‘zbek tili

FILOLOGIYA fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI

Buxoro – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.4.PhD/Fil2843 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.buxdu.uz) va "Ziyonet" Axborot ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Jo'rayeva Bibish Muxsinovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
Rasmiy opponentlar:	**Maxmaraimova Shohista Tuxtashovna** filologiya fanlari doktori (DSc), professor
	Lutfullayeva Durdona Esonovna filologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Samarqand davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/2025.27.12.Fil.08.07 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "7" sentabr soat 9:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11.Tel: (+99865) 221-29-14, 221-27-07,e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (999 raqami bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 200118, Buxoro shahri, M.Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: + 99865 221-29-14)

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "20" avgust kuni tarqatildi.

(2026-yil "20" avgust dagi 29 -raqamli reyestr bayonnomasi

B.E.Kilichev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

M.Y.Xojiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

G.I.Toirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda borliq qarama-qarshi birliklarning zidlanishi va mutanosibligiligidan iborat ekanligi hamma vaqt e’tirof etilib kelinmoqda. Qarama-qarshilik falsafa, mantiq, sotsiologiya, psixologiya kabi fanlar bilan bir qatorda, tilshunoslik uchun ham manba sifatida xizmat qilmoqda. Dunyo tilshunosligida semantik qarama-qarshilikning lisoniy voqelanish shakllarini asoslash, aks ma’no taraqqiyotining sotsiolingvistik, etnolingvistik, lingvokulturologik omillarini ochib berish muammosi dolzarb masalalardan sanaladi. Shu o‘rinda, xalq donishmandligi mahsuli o‘laroq shakllangan paremiologik birliklar, xususan, xalq maqollari tarkibidagi qarama-qarshilik masalasi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo tilshunosligida lingvistik qarama-qarshilik masalasi ilmiy jihatdan keng va atroflicha yoritilgan. Tilning tizimiy hamda funksional xususiyatlarini ochib berishga bag‘ishlangan ilmiy izlanishlarda mazkur hodisaning nazariy va amaliy jihatlariga alohida e’tibor qaratilgan. Natijada leksik va frazeologik birliklar tarkibidagi qarama-qarshilikning lisoniy tabiati, tarixiy taraqqiyoti, semantik xususiyatlari hamda til tizimidagi o‘rni belgilangan. Shu bilan birga, xalqning ko‘p asrlik hayotiy tajribasi va tafakkuri mahsuli bo‘lgan maqol hamda matallardagi qarama-qarshilik hodisasi ham alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Chunki paremiologik birliklarda qarama-qarshilik mazmunni ta’sirchan va ixcham ifodalovchi muhim uslubiy vosita bo‘lishi bilan birga, semantik munosabatlarni, mantiqiy oppozitsiyalarni hamda ma’no taraqqiyoti qonuniyatlarini ochib berishda dolzarb ahamiyatga egadir.

O‘zbek tilshunoslik ilmida lingvistik qarama-qarshilik hodisasi, xususan, antonimiya masalasi leksik-semantik munosabatlar doirasida turli nuqtayi nazarlardan tadqiq etilgan, bu borada muayyan ilmiy-nazariy xulosalar ishlab chiqilgan. Shunga qaramasdan, paremiologik birliklar tarkibidagi antonimiya, antisemiya va enantiosemiya hodisalarining o‘zaro munosabati, ularning yuzaga kelish mexanizmlari, semantik taraqqiyoti hamda uslubiy-poetik funksiyalari kompleks yondashuv asosida alohida tadqiqot obyekti sifatida yetarli darajada yoritilmagan. Holbuki, xalq maqol va matallari tilning ko‘p asrlik tajribasi, xalq tafakkuri va dunyoqarashini mujassamlashtirgan paremiologik birliklar bo‘lib, ulardagi qarama-qarshilik munosabatlarini chuqur o‘rganish o‘zbek tilining semantik tizimi hamda badiiy ifoda imkoniyatlarini yanada to‘liqroq anglashga xizmat qiladi. So‘nggi yillarda mamlakatimizda davlat tilining nufuzini yuksaltirish, o‘zbek tilining ilmiy-nazariy asoslarini takomillashtirish, til birliklarini zamonaviy lingvistik metodlar asosida tadqiq etish hamda milliy til boyligini ilmiy jihatdan chuqur o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Zero, “Globallashuv sharoitida milliy tilimizning sofligini saqlash, uning lug‘at boyligini oshirish, turli sohalarda zamonaviy atamalarning o‘zbekcha muqobilini yaratish, ularning bir xil qo‘llanishini ta’minlash dolzarb vazifa bo‘lib turibdi”[1]. Ushbu vazifalar xalq maqol va matallarida uchraydigan qarama-qarshilik munosabatlarini

[1] Mirziyoyev Sh.M. O‘zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o‘ttiz yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutq, 2019-yil 21-oktabr.

zamonaviy tilshunoslik yondashuvlari asosida tizimli tadqiq etish, antonimiya, antisemiya va enantiosemiyaning paremiologik birliklar tarkibidagi namoyon bo‘lish xususiyatlarini ilmiy asoslash hamda ularning o‘zbek tili semantik tizimidagi o‘rni va ahamiyatini aniqlash zaruratini yanada dolzarblashtiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son “O‘zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari; 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 17-fevraldagi PQ-2789-son “Fanlar akademiyasi faoliyati, ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish, boshqarish va moliyalashtirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son “O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni qabul qilinganligining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida”gi Qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-avgustdagi 368-son “O‘zbekiston Respublikasining fuqaroligiga qabul qilishda davlat tilini bilish darajasini aniqlash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqidagi 2020-yil 28-sentabrdagi 592-son qaroriga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi Qarori va mazkur soha faoliyatiga tegishli boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Jahon tilshunosligida qarama-qarshilik, jumladan, antonimiya munosabatini yoritish, izohlashga doir ko‘plab tadqiqotlar amalga oshirilgan. O‘zbek tilshunosligida esa XX asrning 50-yillaridan e’tiboran antonimiyaga oid ayrim maqolalar e’lon qilina boshlandi[2]. 70-yillarga kelib ushbu masala doirasida chuqur ilmiy izlanishlar olib borildi. Jumladan, leksik antonimlar R.Shukurov va B.Isabekov[3], polisemiya va antonimiya munosabati I.Abdurahmonov tomonidan nomzodlik ishi darajasida o‘rganilgan bo‘lsa[4], frazeologik antonimlar tadqiqi Sh.Rahmatullayev[5] nomi bilan bog‘liq.

---

[2] Муталлибов С. Антоним сўзлар //Совет мактаби. – Тошкент, 1955. № 4. – Б. 28-30.; Усмонов С. Антонимлар //Ўзбек тили ва адабиёти масалалари. – Тошкент, 1958. №2. – Б. 33-40.; Ишаев А. Шаклдош антонимларга оид этюдлар //Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1969. №1. – Б. 16-24.

[3] Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг лекцик-семантик табиати: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1973. – 155 б.; Шукуров Р. Ўзбек тилида антонимлар. – Тошкент: Фан, 1977. – 153 б.; Исабеков Б. Лексическая антонимия в современном узбекском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1973. – 395 с.

[4] Абдураҳмонов И. Полисемия и антонимия прилагательных протяженности в современном узбекском литературном языке: Дисс. ... канд. филол. наук. – Тошкент, 1973. – 123 б.

[5] Раҳматулаев Ш. Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари (фразеологик бирликларда полисемия, синонимия, вариация, антонимия, омонимия ва омонимлик). – Тошкент: Фан, 1966. – 264 б.; Раҳматулаев Ш. Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 408 б.; Раҳматулаев Ш. Ўзбек тилининг фразеологик луғати. – Тошкент, 1992. – 363 б.; Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги Ўзбек ва рус тилларида фразеологик антонимлар. – Тошкент, 2000. – 32 б.

O‘zbek tilshunosligida paremalardagi antonimiya munosabati maxsus tadqiqot ishi sifatida o‘rganilmagan. Ammo D.A.Toshevaning “Zoonim komponentli maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari”, M.J.Sharipovaning “Chorva nomlari asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarining lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari” (“qo‘y” lug‘aviy ma’noviy guruhi asosida), G.Y.Samandarovaning “Hasharot” lug‘aviy ma’noviy guruhi asosida shakllangan o‘zbek xalq paremalarining lingvistik asoslari va leksik-semantik xususiyatlari”[6] kabi dissertatsiyalari tarkibida mavzu doirasidagi leksik-semantik munosabatlar qatorida antonimik munosabat borasida ham fikr yuritiladi. Shuningdek, O.Xolmatova tomonidan 2024-yilda amalga oshirilgan “O‘zbek xalq maqollarining lingvokognitiv xususiyatlari” mavzusida filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining ikkinchi bobi maqollardagi semantik hamda shakliy munosabatlarga bag‘ishlangan bo‘lib, antonim birliklar maqolning mazmuniy strukturasida yetakchilik qilishi alohida ta’kidlanadi.

Kontrast paremalar tarkibida asosiy uslubiy vosita, antonimiya esa uni yuzaga keltiruvchi muhim lingvistik hodisa ekanligini inobatga olgan holda ushbu lingvistik masala paremalar doirasida maxsus tadqiq etilmaganligi mazkur mavzuni alohida o‘rganishni taqozo etadi.

Tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya Buxoro davlat universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalariga muvofiq “O‘zbek tilshunosligida til, shaxs va jamiyat munosabatlari tadqiqi muammolari” (2021-2025 y.y.) mavzusidagi ilmiy yo’nalish doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi o‘zbek xalq paremalari tarkibidagi qarama-qarshilik hamda uni yuzaga keltiruvchi antonimiya, kontekstual antonimiya, antisemiya, enantiosemiya hodisalarini ilmiy jihatdan asoslash, ularning lingvistik imkoniyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

jahon hamda turkiy tilshunoslikda lingvistik qarama-qarshilik turlariga oid ilmiy izlanishlarni nazariy jihatdan ochib berish;

o‘zbek xalq paremalari tarkibidagi antonimiyaning kontekstual antonimiya, antisemiya, enantiosemiya hodisalari bilan munosabatini ilmiy jihatdan asoslash;

o‘zbek xalq paremalarida antonimiyaning tuzilish, turkumlanish, semantik jihatdan turlarini asoslash;

o‘zbek xalq paremalari tarkibidagi ma’noviy qarama-qarshiliklar, jumladan, kontekstual antonimiya, antisemiya, enantiosemiyaning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berish.

Tadqiqotning obyekti sifatida o‘zbek xalq paremalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o‘zbek xalq paremalari tarkibidagi antonimiya va

[6] Тошева Д.А. Зооним компонентли мақолларнинг лингвокултурологик хусусиятлари: Филол. фан. фалс. докт. (PhD) дисс. – Тошкент: 2017. – 134 б.; Nurova Y.U. O‘zbek xalq paremalarining etnolingvistik xususiyatlari (kiyim va oziq-ovqat nomlari asosida): Filol. fan. fals. dokt. (PhD) diss. – Buxoro, 2022. – 149 b.; Sharipova M.J. Chorva nomlari asosida shakllangan o‘zbek xalq maqollarining lingvopoetik va uslubiy xususiyatlari (“qo‘y” lug‘aviy ma’noviy guruhi asosida): Filol. fan. fals. dokt. (PhD) diss. – Buxoro, 2023. – 144 b. Samandarova G.Y. “Hasharot” lug‘aviy ma’noviy guruhi asosida shakllangan o‘zbek xalq paremalarining lingvistik asoslari va leksik-semantik xususiyatlari: Filol. fan. fals. dokt. (PhD) diss. – Buxoro, 2023. – 148 b.

unga yondosh hodisalarning lisoniy xususiyatlarini ochib berish tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda tasniflash, tavsiflash, semantik, qiyoslash, komponent, statistik tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek xalq paremalarida antonimiya hodisasi ilk bor kompleks yondashuv asosida baholanib, uning antisemiya, enantiosemiya va kontekstual antonimiya bilan semantik qarama-qarshilikka asoslanishi, ma’no munosabatlarining ifodalanishi va nutqiy voqelanishi kabi umumiy jihatlari, qarama-qarshilikning yuzaga kelish manbai (til tizimi yoki kontekst), ma’noning lisoniy yoxud nutqiy tabiati, barqarorlik darajasi hamda funksional-pragmatik xususiyatlari bilan farqlanishi asoslangan;

paremalar tarkibidagi antonimik munosabatlarni hosil qiluvchi 790 ta parema tahlili asosida 96 ta antonimik uya ajratilib, ularning semantik xususiyatlari, o‘zaro bog‘lanishlari, qo‘llanish faolligi va paremalar mazmunini shakllantirish kabi funksiyalarini yoritish orqali o‘zbek xalq paremalarida antonimiya muayyan semantik qonuniyatlarga asoslangan tizimli hodisa ekani isbotlangan;

antonimiyaga yondosh antisemiya (rostgo‘ylik – baxt, yolg‘onchi – badbaxt; Bir tovushni ko‘p tovush yo‘q qilar) va enantiosemiya (Yerini aldagan och qolar misolidagi aldamoq leksemasining “yo‘ldan urmoq, yo‘ldan ozdirmoq” semasi) hodisalarining antonimiyadan qarama-qarshilikning lisoniy yoki mantiqiy asosda yuzaga kelishi, ma’noning ikki leksema yoki bitta leksema doirasida ifodalanishi hamda semantik oppozitsiyaning shakllanish xususiyati bilan farqlovchi belgilari ochib berilgan;

semantik qarama-qarshilik turlarining paremalar tarkibidagi tahlili natijasida ayrim leksemalar (to‘tiyo – kukun, chang; botir – 1) uddaburon, ishning ko‘zini biladigan, jonkuyar; 2) pahlavon, bahodir)ning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qayd etilmagan semalari hamda ayrim leksemalar (tuya ↔ ot – “uzoqni ko‘ra olish”; eshak ↔ ot – “tez ildamlash”, “nasl-nasab”)ning nutqiy ma’nolari paremalar asosida dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

antonimiya munosabati qo‘llangan o‘zbek xalq paremalarini to‘plashda, uning tuzilish, turkumlanish, semantik guruhlarini aniqlashda, sohaga oid terminlarni tartibga solishda tadqiqotning amaliy ahamiyatli ekanligi dalillangan;

antonimiya munosabati paremalar tarkibida qarama-qarshilik ifodalovchi faol leksik-semantik vosita ekanligi dalillar asosida isbotlangan;

paremalarda qo‘llangan antonimiya va semantik qarama-qarshilik munosabatlari yuzasidan ilmiy ma’lumotlar umumlashtirilib, yondashuvlar takomillashtirilib, nazariy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan;

to‘plangan materiallar, nazariy tavsiyalar o‘zbek tilshunosligi, leksikologiya va paremiologiyani muayyan ilmiy xulosalar bilan boyitishi, ushbu sohaga oid ilmiy tadqiqotlar rivoji uchun xizmat qilishi ochib berilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi o‘zbek xalq paremalarida antonimiya hamda unga yondosh hodisalar – antisemiya, enantiosemiya nazariy tadqiqi ilmiy manbalar asosida atroflicha yoritib berilganligi, shu asosda ularning o‘ziga xos jihatlari dalillanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, ilmiy xulosalar o‘zbek xalq paremalarida namoyon bo‘luvchi qarama-qarshilik munosabatlarining o‘ziga xos xususiyatlarini har tomonlama bilish uchun imkon yaratib, umumlashtirilgan nazariy xulosalar leksik-semantik munosabatlar mohiyatining yanada oydinlashishiga yordam beradi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati shundaki, ular paremiologiya va antonimiyaga oid ilmiy tadqiqotlarni yangi faktik materiallar bilan boyitishga, sohaga doir darslik, o‘quv va uslubiy qo‘llanmalar hamda monografiyalar yaratishga, antonimik va paremiologik lug‘atlar tuzishga, shuningdek, “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”ni yangi faktik materiallar asosida takomillashtirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O‘zbek xalq paremalarida antonimiya va unga yondosh hodisalar muammosi bo‘yicha olib borilgan tadqiqot asosida olingan natijalar quyidagi ishlarda joriylangan:

o‘zbek xalq paremalarida antonimiya hodisasi ilk bor kompleks yondashuv asosida baholanib, uning antisemiya, enantiosemiya va kontekstual antonimiya bilan semantik qarama-qarshilikka asoslanishi, ma’no munosabatlarining ifodalanishi va nutqiy voqelanishi kabi umumiy jihatlari, qarama-qarshilikning yuzaga kelish manbai (til tizimi yoki kontekst), ma’noning lisoniy yoxud nutqiy tabiati, barqarorlik darajasi hamda funksional-pragmatik xususiyatlari bilan farqlanishi asoslanganiga doir yangiliklardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida 2025-yilda bajarilgan II-4721101717-raqamli “Xizmat ko‘rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyiha doirasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2025-yil 4-fevraldagi 189-son ma’lumotnomasi). Natijada xizmat ko‘rsatish obyektlari milliy nomlari bilan bog‘liq masalalar yuzasidan takliflar ishlab chiqishda paremalarning antonimik tadqiqi asosida ilgari surilgan ilmiy xulosalardan foydalanilgan;

paremalar tarkibidagi antonimik munosabatlarni hosil qiluvchi 790 ta parema tahlili asosida 96 ta antonimik uya ajratilib, ularning semantik xususiyatlari, o‘zaro bog‘lanishlari, qo‘llanish faolligi va paremalar mazmunini shakllantirish kabi funksiyalarini yoritish orqali o‘zbek xalq paremalarida antonimiya muayyan semantik qonuniyatlarga asoslangan tizimli hodisa ekani isbotlangani, antonimiyaga yondosh antisemiya (rostgo‘ylik – baxt, yolg‘onchi – badbaxt; Bir tovushni ko‘p tovush yo‘q qilar) va enantiosemiya (Yerini aldagan och qolar misolidagi aldamoq leksemasining “yo‘ldan urmoq, yo‘ldan ozdirmoq” semasi) hodisalarining qarama-qarshilikning lisoniy yoki mantiqiy asosda yuzaga kelishi, ma’noning ikki leksema yoki bitta leksema doirasida ifodalanishi hamda semantik oppozitsiyaning shakllanish xususiyati bilan farqlovchi belgilari ochib berilganiga doir xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazida 2025-yilda bajarilgan ALM-202310132634 raqamli

“Yangi so‘z va atamalarning o‘zbekcha muqobilini sun’iy intellekt asosida avtomatik taqdim qiluvchi atamacom.uz dasturiy ta’minoti platformasi va mobil ilovasini yaratish” mavzusidagi innovatsion loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o‘qitish va malaka oshirish markazining 2025-yil 20-maydagi 841-son ma’lumotnomasi). Natijada mobil ilovadagi nomlarni shakllantirishda dissertatsiyada ilgari surilgan xulosalardan foydalanilgan;

semantik qarama-qarshilik turlarining paremalar tarkibidagi tahlili natijasida ayrim leksemalar (to‘tiyo – kukun, chang; botir – 1) uddaburon, ishning ko‘zini biladigan, jonkuyar; 2) pahlavon, bahodir)ning “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da qayd etilmagan semalari hamda ayrim leksemalar (tuya ↔ ot – “uzoqni ko‘ra olish”; eshak ↔ ot – “tez ildamlash”, “nasl-nasab”)ning nutqiy ma’nolari paremalar asosida dalillangani haqidagi yangiliklardan O‘zbekiston teleradiokompaniyasining “Assalom, Buxoro”, “Sakkizinchi mo‘jiza”, “Diyor yangiliklari” ko‘rsatuvlarining 2024-yil yanvar, fevral, mart sonlaridagi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (O‘zbekiston milliy teleradiokompaniyasi “Buxoro” telekanalining 2025-yil 31-yanvardagi 01-09-54-son ma’lumotnomasi). Natijada ushbu ko‘rsatuvlarning sifati yanada oshgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo‘yicha 7 ta xalqaro, 7 ta respublika ilmiy-amaliy konferensiyalarida ma’ruza qilingan va aprobatsiyadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiyaning asosiy mazmuni yuzasidan 21 ta ilmiy maqola va tezislar chop etilgan. Jumladan, O‘zbekiston Oliy attestasiyasi komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, shundan 3 tasi xalqaro va 4 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati hamda ilovalardan tashkil topgan bo‘lib, jami 130 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar hamda dissertatsiyaning tuzilishiga doir ma’lumotlar keltirilgan.

Birinchi bob “**Qarama-qarshilik va uning fanda ifodalanishi”** deb nomlangan bo‘lib, ikki fasldan tashkil topgan. *“Qarama-qarshilikning falsafiy aspekti*” faslida ziddiyat va qarama-qarshiliklar o‘rtasidagi aloqadorlik hamda farqlilik dialektik qonuniyat va kategoriyalar mohiyatini yoritib beruvchi muhim

konsepsiya hisoblanishi; ziddiyat keng tushuncha bo‘lib, qarama-qarshilik uni namoyon etuvchi muhim tarkibiy qism ekanligi; dualistik tafakkur insoniyat yaralgandan buyon mavjudligi, odamzot konfliktlar bilan “bilag‘on odam”lar yashagan davrdan boshlab hamnafasligi; Sharq va G‘arb falsafasida konfliktning o‘rni haqidagi nazariy ma’lumotlar mujassamlangan.

Ziddiyat hamda qarama-qarshilik tushunchalari haqida gap ketar ekan, ularning alohida-alohida hodisalarni nomlab kelishiga e’tibor qaratish lozim. Qarama-qarshilikdan farqli ravishda, ziddiyat mantiqiy taraqqiyot kategotiyalaridan biri hisoblanadi. Qarama-qarshiliklar – ziddiyatlarning negizi, bog‘lovchi bo‘g‘inlar esa – ularni yechish mexanizmidir[7]. Gegel g‘oyalari asosida ziddiyat tarqalishining quyidagi bosqichlari (fazalari) farqlanadi: ayniyat, tafovut, qarama-qarshilik, ziddiyat va asos (ziddiyatning yechilishi). [8]Xulosa qilib aytganda, ziddiyat qarama-qarshilikka nisbatan keng tushuncha bo‘lib, mantiqiy taraqqiyot qonunlaridan biridir. U ayniyat, farqlilik, qarama-qarshilik va ziddiyatning yechilishi kabi qator bosqichlarni o‘zida namoyon etuvchi falsafiy kategoriya hisoblanadi. Qarama-qarshilik esa mana shu mexanizmni bog‘lab turuvchi richak, ziddiyatni yuzaga keltiruvchi tarkibiy qism, uning bir bo‘g‘inidir.

“Qarama-qarshilikning lingvistik aspekti” nomli ikkinchi faslda *qarama-qarshilik munosabati* va *qarama-qarshilik kategoriyasi* kabi bir-biridan farqlanuvchi ikki tushuncha mohiyati; *lisoniy ziddiyat* hamda *lisoniy qarama-qarshilik* lingvistik terminlarining o‘zaro farqi; antonimiya, antisemiya, enantiosemiya kabi leksik-semantik munosabat turlari lisoniy qarama-qarshilik sirasiga kiritilishi borasida mulohazalar bayon etilgan.

Qarama-qarshilik munosabati lingvistikada, asosan, antonimiya nomi ostida beriladi[9]. Formal tilshunoslikda *qarama-qarshilik munosabati* va *antonimiya* terminlariga absolyut sinonimlar sifatida qaralib, birining o‘rnida ikkinchisini bemalol ishlatish mumkin deb hisoblanadi. Ammo aksariyat hodisalar qatori terminlarni milliylashtirish yuqoridagi atamalar uchun ham mos kelmaydi. Qarama-qarshilik munosabati antonimiyaga nisbatan keng ma’noda qo‘llaniladi va antonimiya uning tarkibiy qismi sanaladi. Mazkur semantik munosabat tarkibiga antonimiyadan tashqari antisemiya, enantiosemiya kabi hodisalar ham kiradi.

Shunday ekan, *qarama-qarshilikning lingvistik aspekti deganda* bugungi kun tilshunosligiga doir uch xil munosabat turini nazarda tutish muhim sanaladi. Bular: antonimiya, antisemiya, enantiosemiya. Shu o‘rinda, mazkur hodisalarga nega aynan ziddiyat emas, balki qarama-qarshilik munosabati deb qaralishi masalasiga ham diqqat qaratish lozim. *Lisoniy ziddiyat* a’zolari orasida umumiy, birlashtiruvchi, shu bilan birgalikda, o‘zaro farqlovchi belgilar muhim sanalsa, *lisoniy qarama-qarshilik* munosabatlarida ular bilan bir qatorda qarama-qarshilik

[7] Шермуҳаммедова Н. Фалсафа. – Тошкент: Фан, 2010. – Б. 282.
[8] Юлдашева М.М., Муҳаммадалиева Ш. Мантиқий тафаккурнинг умумий қонунлари // Замонавий таълим / современное образование, 2019. – № 3. (76) – Б. 15.
[9] Абдуллаева Д.А.Ўзбек тилида антисемия: Филол. фан. номз... дисс. автореф. 10. 02. 01. – Тошкент, 2010. – Б. 23.

semasining mavjud bo‘lishi ustuvorlik kasb etadi. Lisoniy qarama-qarshilik turlari sifatida antonimiya hamda unga yondosh munosabat turlari antisemiya, enantiosemiya kabilarni e’tirof etish lozim.

“Antonimiya va unga oid tadqiqotlar tahlili” deb nomlangan bandda bu yo‘nalishda amalga oshirilgan lingvistik tadqiqotlar tahlilga tortilgan. Dunyo, xususan, ingliz, rus tilshunosligida, turkologiyada antonimiya munosabatining o‘rganilishi masalasi yoritilgan. Xususan, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab rus tilshunosligida antonimiya hodisasiga bag‘ishlangan maxsus ishlar yuzaga kela boshlagan[10]. Zamonaviy tilshunoslikda bu mavzu o‘z dolzarbligini yo‘qotgani yo‘q[11]. Shular qatorida, tadqiqot ishida o‘zbek tilshunosligida antonimiya munosabatiga oid ilmiy izlanishlarning tadrijiy tadqiqi amalga oshirilgan. Milliy mustaqillik ta’sirida qator masalalar kabi qarama-qarshilik munosabati yuzasidan ham ilmiy yangiliklar amalga oshirilganligi ta’kidlangani holda bu borada yechimini kutayotgan muammolar talaygina eganligi qayd etilgan.

“Antisemiya va uning nazriy tadqiqi” nomli bandda bu yo‘nalishda amalga oshirilgan lingvistik tadqiqotlar tahlilga tortilgan.

Turli so‘z turkumi doirasida namoyon bo‘luvchi semantik qarama-qarshilik munosabati masalasi anchayin munozarali masalalardan bo‘lib kelgan. Aksariyat olimlar teskari ma’no namoyon bo‘lishi uchun turkumlik semasi bir xil bo‘lishi lozim deb hisoblashgan. Dastavval, dunyo tilshunosligida V.N.Migirin,

---

[10] Введенская Л.А. Словарь антонимов русского языка. – Ростов-на-Дону: Ростов ун-т, 1971. – 139 с.; Завьялова В.М. Антонимы (Пособие по лексике немецкого языка). – Москва: Высшая школа, 1969. – 245 с.; Новиков Л.А. Антонимия в русском языке: Семантический анализ противоположности в лексике. – Москва, 1973. – 290 с.; Иванова В.А. Антонимия в системе языка. – Киев: Штиинца, 1982; Соколова Н.Л. К проблеме определения и классификации антонимов и их стилистического использования: Дисс. … канд. филол. наук. – Москва, – 1977. – 69 с.; Шмелев Д.Н. Современный русский язык: Лексика. – Москва, 1977; Миллер Е.Н. Антонимия в лексике и фразеологии (на материале немецкого и русского языков). – Алма-Ата: Наука, 1978. – 104 с.; Миллер Е.Н. Природа лексической и фразеологической антонимии. – Саратов: Саратовский ун-т, 1990. – 104 с.; Халиков М.М. Лексико-семантическая характеристика антонимических контекстов (на материале современного немецкого языка): Дисс. … канд. филол. наук. автореф. – Лелинград, 1983. – 156 с.; Меркурьева Н.М. Антонимия сложных слов в современном русском языке: Дисс. … канд. филол. наук. автореф. – Москва, 1996. – 247 с.

[11] Меркурьева Н.М. Антонимия сложных слов в современном русском языке: Дисс. … канд. филол. наук. 10.02.01. – Москва, 1996. – 247 с. http://www.dslib.net/russkij-jazyk/antonimija-slozhnyh-slov-v-sovremennom-russkom-jazyke.html; Чернега Е.Н. Антонимы в лингвистическом и лингвокогнитивном аспектах: На материале речи младших школьников: Дисс. … канд. филол. наук. 10.02.01. – Таганрог, 2005. – 352 с. https://www.dissercat.com/content/antonimy-v-lingvisticheskom-i-lingvokognitivnom-aspektakh-na-materiale-rechi-mladshikh-shkol; Толстая А.Л. Антонимия как механизм создания контраста в современной публицистической речи: на материале русского и немецкого: Дисс. … канд. филол. наук. 10.02.20. – Москва, 2010. – 230 с. https://www.dissercat.com/content/antonimiya-kak-mekhanizm-sozdaniya-kontrasta-v-sovremennoi-publitsisticheskoi-rechi; Муташева Г.Р. Антонимы и антонимические отношения в лексике и фразеологии кумыкского и русского языков: Дисс. … канд. филол. наук. 10.02.02. – Махачкала., 2010. – 173 с. https://www.dissercat.com/content/antonimy-i-antonimicheskie-otnosheniya-v-leksike-i-frazeologii-kumykskogo-i-russkogo-yazykov; Гудкова Я.А. Антонимия в первичном и вторичном поэтическом тексте: на материале произведений Дж. Г. Байрона “Дон Жуан” и А.С. Пушкина “Евгений Онегин” и их поэтических переводов: Дисс. … канд. филол. наук. 10.02.19. – Ростов-на-Дону., 2010. – 186 с. https://www.dissercat.com/content/antonimiya-v-pervichnom-i-vtorichnom-poeticheskom-tekste; Сазонова В.А. Антонимы как средство выражения контраста в языке и художественной речи: на материале прозы А.П. Чехова: Дисс. … канд. филол. наук. 10.02.01. – Красноярск, 2011. – 234 с. https://www.dissercat.com/content/antonimy-kak-sredstvo-vyrazheniya-kontrasta-v-yazyke-i-khudozhestvennoi-rechi.

L.M.Vasilyev, S.G.Viryacheva, Y.N.Miller, N.M.Tupchiyeva, M.Y.Blox[12] kabi olimlar tomonidan turkumlararo qarama-qarshilik masalasi borasida qator ilmiy izlanishlar olib borilgan.

O‘zbek tilshunosligida antisemiya hodisasi maxsus tatqiqot ishi obyekti sifatida D.Abdullayevaning[13] nomzodlik ishida ilmiy jihatdan asoslandi. Ammo qarama-qarshilik borasida olib borilgan izlanishlarning deyarli birortasida mazkur hodisaga to‘xtalilmagan. Faqatgina 2019-yil M.Xakimova tomonidan “O‘zbek tilida abstrakt nomlar semantikasi” mavzusida amalga oshirilgan tadqiqot ishida abstrakt tushunchalarning ifodalanishida ot hamda sifat antisemiyasining o‘rni muhim ekanligi ta’kidlangan[14].

“Enantiosemiya tilshunoslik obyekti sifatida” bandda enantiosemiya munosabatining jahon tilshunosligida keng aspektda o‘rganilgan hodisa ekanligi qayd etilgani holda bu boradagi tadqiqot ishlari tahlili amalga oshirilgan; turkiy tillar oilasiga mansub tillarda, xususan, o‘zbek tilida enantiosemiya hodisasi mahsuldor ekanligi ta’kidlangan. Ammo milliy tilshunoslikda mazkur soha tadqiqot obyekti sifatida oz miqdorda tahlilga tortilgan, mavjud muammolar borasida ilmiy takliflar berilgan.

Fikrimizcha, enantiosemiyaning ikki xil ko‘rinishi mavjud: polisemantik birliklar tarkibidagi enantiosemiya hamda omonimlik xarakteriga ega bo‘lgan birliklar tarkibidagi enantiosemiya. Albatta, olimlar ta’kidaganidek, polisemantik birliklardagi enantiosemiya mahsuldor, ammo omonimlar doirasidagi enantiosemiya hodisasini ham inkor etib bo‘lmaydi. Besh jildli “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da aksariyat ma’no zanjiriga ega bo‘lmagan, turli xil so‘z turkumiga oid birliklar omonim emas, balki ko‘p ma’noli so‘z sifatida qayd etilgan. Jumladan, *balo* leksemasining quyidagi semalari izohlanadi:

1. Biror voqea-hodisa, harakat tufayli yuzaga kelgan ofat, falokat; tashvish.
2. *ko‘chma* s.t. Uddaburon, ishning ko‘zini biluvchi, o‘z ishiga pishiq.

Ko‘rinadiki, mazkur semalar ikki xil so‘z turkumiga oid tushunchalarni ifodalab kelmoqda, ammo ular “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da omonim emas, ko‘p ma’noli so‘zlar sifatida qayd etilgan. Afsuski, mazkur kamchilik “O‘zbek

[12] Мигирин В.Н. Язык как система категорий отображения. – Кишинев, 1973. – 50 с.; Васильев Л.М. Методы современной лингвистики. – Уфа: Баш ГУ, 1997. – С. 45-49.; Вирячева С.Г. Межчастеречные лексические парадигмы в художественном тексте: Дисс канд. филол. наук. автореф. – Санк-Петербург, 1991. – 380 с.; Миллер Е. Н. Межчастеречная антонимия // Филол. науки, 1981. – № 1. – С. 78-82; Миллер Е. Н. Межчастеречная антонимия // Филол. науки, 1981. – № 1. – С. 78-82.; Миллер Е.Н. Антонимия в лексике и фразеологии: На материале немецкого и русского языков. – АлмаАта, 1978. – 104 с.; Миллер Е.Н. Природа лексической и фразеологической антонимии. – Саратов: Саратовского ун-т, 1990. – 107 с.; Тупчиева Н.М. Антонимия в современном лакском языке: Дисс. ... канд. филол. наук. автореф. – Махачкала, 2006. www.dgpu.ru/uploads; Тупчиева Н. М. Антонимия в современном лакском языке: Дисс канд. филол. наук. автореф. – Махачкала, 2006. – С. 20-21. Блох М.Я. Теоретические основы грамматики. – Москва: Высш. шк., 2000. – 53 с. http://depositfiles.com/ru.

[13] Абдуллаева Д.А. Ўзбек тилида антисемия: Филол. фан. номз... дисс. автореф. 10. 02. 01. – Тошкент, 2010. – 135 б.

[14] Хакимова М.К. Ўзбек тилида абстракт номлар семантикаси: Филол. фан. докт. (DSc) дисс. – Тошкент, 2019. – 230 б.

tilining izohli lug‘ati” olti jildli yangi nashri[15]da ham tuzatilgan emas. Mavjud kamchiliklar tilshunoslikka oid nazariy xulosalarga xolis yondashuvga to‘siq bo‘lmoqda.

Aytish mumkinki, enantiosemiya hodisasiga olim Y.Odilov ta’kidlaganidek, polisemiyaning maxsus ko‘rinishi sifatida qarash masala mohiyatini to‘liq ochib bermaydi. Enantiosemiya hodisasiga semantik qarama-qarshilikning alohida turi sifatida yondashish uchun mazkur hodisani ko‘p ma’noli so‘zlarning semalari orasida emas, omonimlik xarakteriga ega bo‘lgan leksemalar doirasida tatqiq etish lozim.

Tadqiqotning ikkinchi bobi **“O‘zbek xalq paremalarida antonimiyaning tuzilish, turkumlanish, semantik jihatdan tadqiqi”** deb nomlangan. Bob uch fasldan tashkil topgan. Birinchi fasl *“Paremalardagi ichki antonimiya”* deb nomlanib, o‘z navbatida, ikkiga bo‘linadi. Faslning kirish qismida sohaga oid jahon va o‘zbek tilshunosligida amalga oshirigan ilmiy ishlar tahliliga e’tibor qaratilgan; antonimiya hodisasini paremiologiya doirasida o‘rganishning ahamiyati haqida mulohaza yuritilgan.

“Paremalardagi antonimik birliklarning tuzilish jihatdan tasnifi” nomli bandda R.Shukurovning “O‘zbek tilida antonimlarining leksik-semantik tabiati”[16] nomli tadqiqot ishida qayd etilgan tuzilish jihatdan antonimik qatorlarning (variantlari bilan) o‘ttizdan ortiq turlariga tayangan holda paremalar tarkibidagi ichki antonimiyaning tuzilish jihatdan leksemalar, frazemalar ishtirokidagi shakllari tahlili bilan bir qatorda qo‘shimcha ravishda *so‘z birikmalari antonimiyasi* ham mavjud ekanligi taklifi ilgari surilgan.

L.A.Novikov ta’kidlaganidek: “Antonimlik so‘z mazmuniy tarkibining komponentidir. U leksik ma’noning muhim xarakteristikasi, farqlanishning tildagi alohida ifodasi, obyektiv olam predmetlarining qarama-qarshiligi sifatida namoyon bo‘ladi”[17]. Antonimiya mazmun plani bilan ish ko‘rishini inobatga olgan holda, leksema hamda frazema kabi tushuncha ifodalovchi, nominativ birlik hisoblangan so‘z birikmasiga mazkur munosabatni yuzaga keltiruvchi lingvistik birlik deb qarash lozim. To‘g‘ri, so‘z birikmasi – qismlarini erkin almashtirish mumkin bo‘lgan grammatik hodisa, nutq birligi. Shu nuqtayi nazardan, mazkur hodisaning mazmun plani bilan bog‘liq imkoniyatlarini ilmiy jihatdan yanada chuqurroq tadqiq etish lozim. Ilmiy tadqiqot ishida antonimiya hodisasiga mazkur jarayonning ma’lum bir tomoni sifatida qaralib, uning matniy, xususan, paremalar tarkibidagi tuzilish jihati bilan bog‘liq imkoniyatlari yoritildi.

1) so‘z birikmasi ↔ so‘z birikmasi: *Elga qo‘shilgan*ning ko‘ngli to‘q, *eldan ajralgan*ning beti yo‘q; *Yaxshining ishi* – jannat, *yomonning ishi* – kasofat; *Qobil o‘g‘il* otga mindirar, *noqobil (o‘g‘il)* – otdan tushirar; Yaxshi rahbar *yo‘l*

[15] Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдли. I жилд. – Тошкент: O‘zbekiston nashriyoti, 2020. – Б. 259-260.
[16] Шукуров Р. Ўзбек тили антонимларининг лекцик-семантик табиати: Филол. фан. номз... дисс. – Тошкент, 1973. – 113 б.
[17] Новиков Л.А. Антонимия в русском языке (Семантический анализ противоположности в лексике). – Москва, 1973. – С. 59.

qurar, yomon rahbar *yo‘l buzar; Yomonning zarari* tegar *keng yo‘lda*, *yaxshining foydasi* tegar *tor yo‘lda*;

2) sodda tub so‘z ↔ so‘z birikmasi: *Naqd*dan yutasan, *qarzga olib* kutasan;

3) qo‘shma so‘z ↔ so‘z birikmasi: *Kamgap*ning aqli uzun, *ko‘p gapning* umri qisqa;

4) so‘z birikmasi ↔ juft so‘z: *Osoyishta saroy*dan *shovqin-suronli* kulba yaxshi;

5) takror so‘z ↔ so‘z birikmasi: Ish qilganga *qop-qop*, qilmaganga *bo‘sh qop*;

6) so‘z birikmasi va ibora:

a) frazema ↔ so‘z birikmasi: *La’nat yog‘diruvchi* bo‘lma, *rag‘bat eshituvchi* bo‘l.

b) so‘z birikmasi ↔ frazema: *Xasini qizg‘angan* baxildan, *qo‘li ochiq* ahil yaxshi.

Ko‘rinadiki, so‘z birikmalari ham antonimik qator hosil qilishda tuzilish jihatdan leksema hamda frazema kabi teng imkoniyatlarga ega. Bu ham so‘z birikmalari antonimiyasi mavjud ekanligiga dalil bo‘ladi. Kuzatuvlar asosida aytish mumkinki, paremalar tarkibida ichki antonimiyani yuzaga keltirgan birliklar tuzilish jihatdan, asosan, sodda so‘zlar hamda so‘z birikmalariga teng keladi.

“Paremalardagi leksik antonimlarning turkumlanish jihatdan tasnifi” deb ataluvchi bandda paremalar tarkibidagi ichki antonimiyani yuzaga keltirgan leksik antonimlarning turkumlanish jihatdan tatqiqida *sifat so‘z turkumi bo‘yicha* 445 ta paremadagi 39 ta, *ot so‘z turkumi bo‘yicha* 280 ta paremadagi 37 ta, *fe’l so‘z turkumi bo‘yicha* 60 ta paremadagi 17 ta antonimik juftlik va guruhlar; *ravish so‘z turkumi bo‘yicha* 10 ta paremadagi 4 ta antonimik juftlik aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda, tilshunoslikda antonimiya belgi bildiruvchi so‘zlar, xususan, sifat, ravish so‘z turkumlariga oid birliklarda ko‘p uchrasa; bundan farqli ravishda paremalar tarkibidagi antonimiya munosabati sifat va ot so‘z turkumida ancha serunumligi ko‘zga tashlanadi. Fe’l hamda ravish so‘z turkumiga oid komponentlar antonimiyasiga qurilgan maqol va matallar ham uchraydi.

Mazkur bobning ikkinchi fasli *“Paremalardagi antonimik birliklarning semantik jihatdan tadqiqi”* deb atalgan. Mazkur faslda antonimiya hodisasi mazmuniy maydon nazariyasi bilan bog‘lagan holda o‘rganilgan. Bunda yagona mavzuviy maydon atrofida birlashgan, semantik yadroga ega bo‘lgan va uning ikki chetida joylashgan birliklar qarma-qarshiligiga asoslanuvchi *kontrar antonimlar* (*Yaxshi* rahbar yo‘l qurar, *yomon* rahbar el buzar); tur tushunchasini belgilovchi so‘zga, oraliq uchinchilik tushunchasiga yoki semantik yadroga ega bo‘lmagan birliklar qarama-qarshiligiga qurilgan *komplimentar antonimlar* (Tanbalga *jannat* yo‘q, qaytib kelsa *do‘zax* yo‘q); ma’lum mavzuviy maydon atrofida birlashmasdan turli yo‘nalishdagi faoliyat, harakat, holatni ifodalaydigan birliklar qarama-qarshiligini namoyon qiluvchi *verbal antonimlar* (Yurt bilan kelgan *aza* ham –

to‘y) paremalar doirasida tatqiq qilingan. Paremalardagi antonimik birliklarning mikromaydonga munosabatiga ko‘ra turlari aniqlangan. Mazkur fasl tarkibida antonimik birliklarning semantik tasnifi bilan birgalikda *paremalardagi antonimik birliklarda parallelizm va badiiy san’at ko‘rinishlari* masalasiga ham to‘xtalib o‘tilgan. Antonimik birliklarning parallelizmga xos bo‘lgan simmetrik qarama-qarshilikka ko‘ra turlari; qarama-qarshi ma’noli birliklar asosida yuzaga keluvchi badiiy san’atlar borasida mulohazalar bildirilgan. Antonimlar ishtirok etgan paremalar tazod, qarshilantirish badiiy san’atlarini yuzaga keltiradi. Ammo ayrim paremalar tarkibida tazoddan tashqari takrir (*Yaxshining tilagi ham yaxshi, yomonning niyati ham yomon),* tardu aks (*Ba’zi nikoh olisni yaqin qiladi, ba’zi nikoh yaqinni olis qiladi*) kabi badiiy san’at turlarini ham uchratish mumkin. Bu kabi vositalar ma’no kuchini yanada oshirib, bo‘yordorlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Paremalarning o‘zaro antonimiyasi” nomli uchinchi faslda antonimiyaning tarkibiy jihatdan turlari sirasiga paremalararo antonimiya hodisasini ham kiritish tavsiya etilgan; qarama-qarshi mazmun ifodalovchi maqol va matallar tadqiqi amalga oshirilgan.

So‘z birikmasi tushuncha ifodalashini; paremalar yaxlitligicha umumiy mazmun ifodalashini inobatga olish lozim. Biroq ilmiy manbalarda leksik ma’no, atash ma’nosi, semema tushunchalari faqatgina leksemalar yoki so‘zlar bilan kifoyalanadi. Masalaga kengroq yondashilsa, so‘z birikmasi leksema singari tushuncha ifodalagani, paremalar esa nutqqa tayyor holda olib kirilishi, yaxlitligicha umumiy mazmun ifodalashi, shu sababdan leksemalar kabi maxsus lug‘atlarda to‘planishi jihatini inobatga olib, so‘z birikmasi va paremalarni leksemalar qatorida mazmun plani bilan bevosita aloqador deb hisoblaymiz. Antonimiya hodisasi esa semantik munosabat turi ekanligi hamda antonimiyani belgilash mezonlariga ko‘ra shakl emas, mazmun birlamchi o‘rinda turishi nuqtayi nazaridan yondashib mazkur hodisani quyidagi birliklar doirasida tadqiq etish lozim:

affiks morfemalar;
leksemalar;
frazemalar;
so‘z birikmalari;
paremalar.

Aksariyat hollarda, nutqiy vaziyat talabiga ko‘ra fikrni dalillash, har tomonlama asoslab ko‘rsatish maqsadida qarama-qarshi ma’no ifodalovchi paremalarning qo‘llanilishi kuzatiladi.

Misol: – Shoshmang, shoshmang, ini degan og‘asining gapidan ranjimaydi. Ko‘ngilga og‘ir olmang. Begona emasman. *Tanasi boshqa dard bilmas deydilar-u,* illo *shoxiga ursa, tanasi zirqirashiyam* bor. Kindik qonimiz bir joyga to‘kilgan, ildizimiz ham bitta[18].

[18] Файзий Р. Ҳазрати инсон: роман. – Тошкент: Адабиёт ва санъат, 1975. – Б. 307.

Uchinchi bob **“O‘zbek xalq paremalari tarkibidagi ma’noviy qarama-qarshiliklar”** deb atalgan va uch fasldan iborat. *“Paremalarda kontekstual antonimiya”* nomli birinchi faslda mavjud nazariy qarashlar, shaxsiy kuzatuvlar asosida *kontekstual antonimiya*ga doir lingvistik ta’rif taklifi ishlab chiqilgan.

Fikrimizcha, ixtiyoriy birlik emas, aynan polisemantik xarakterga ega bo‘lgan leksemalarning ko‘chma ma’nolari orasida yuzaga keluvchi qarama-qarshilik kontekstual antonimiyani hosil qiladi. Demak, aksariyat kontekstual antonimlar har qanday til birliklari orasida emas, balki ko‘p ma’noli so‘zlarning ko‘chma ma’nolari negizida namoyon bo‘ladi.

“3.1.1.-jadval.”

Asal va zahar leksemalari qarama-qarshiligi

Asal 2		Zahar 2
ko‘chma Juda shirin.		*ko‘chma* Og‘u singari achchiq, kishi hayotini og‘ulaydigan, azobga aylantiradigan narsa, holat.

Iliq so‘z – *asal*, sovuq so‘z – *zahar*; Minnatli non – *asal*, minnatsiz non – *zahar*.

Ayrim hollarda qarama-qarshi semaga ega bo‘lgan birliklar izohli lug‘atda keltirilgan ayni ma’nolari asosida zidlanmasligi mumkin. Bunday holatda ular orasida semantik jihatdan bog‘liqlikning bo‘lishi kontekstual antonimiya yuzaga kelishiga olib keladi. Ko‘p hollarda, xususan, *Bolali uy – bozor, bolasiz uy – mozor*; *Elli yer – bozor, elsiz yer – mozor* paremalari tarkibida mazkur birliklar qarama-qarshiligi kuzatiladi. Bunda *bozor*ga xos g‘ala-g‘ovur, shovqin-suron, sho‘xlik holati hamda *mozor*ga xos tinch, sokinlik xususiyati inobatga olingan.

Uzoq yillar davomida kontekstual antonimiya sirasida o‘rganib kelingan turli so‘z turkumi doirasida namoyon bo‘luvchi qarama-qarshilik munosabati antisemiya hodisasi tarkibiga kiritildi. Natijada mazkur ikki hodisa o‘rtasida o‘xshash va farqli jihatlarni belgilash ehtiyoji yuzaga keldi. Ammo bugungi kunga qadar amalga oshirilgan tadqiqotlarda ularning o‘zaro integral va differensial xususiyatlari borasida mulohaza yuritilmagan. Mazkur tadqiqot ishida antisemiya hamda kontekstual antonimiyaning o‘xshash va farqli jihatlari ilmiy jihatdan asoslangan:

antisemiya munosabatidagi birliklar turli so‘z turkumiga, kontekstual antonimlar bir xil so‘z turkumiga oid bo‘ladi, matn tarkibida qarama-qarshi mazmun ifodalovchi birliklar har xil so‘z turkumi doirasida bo‘lsa, kontekstual antisemiyani yuzaga keltiradi;

antisemik birliklar, asosan, lisoniy; ba’zan kontekstual xarakterga ega bo‘ladi, kontekstual antonimiya nutqiy xarakterda bo‘lib, biror muallif tomonidan individual tarzda yaratiladi;

antisemik birliklar kontekstual antonimlardan farqli ravishda nutqdan ajratilganda ham qarama-qarshilik uchun asos bo‘ladi;

